



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
QASHQADARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

180100, Qarshi Shahri, I.Karimov shox ko'chasi 60a-uy, Tel/Faks: 71-203-11-17, E-mail:
kashdavekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i:

2026 - yil 27 - avgustdagi
YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, "Oqtepa" MFY, "Nurxon" ko'chasi, 15-uy hududida qurilishi rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turar joy (12 qavatli) va birinchi qavatli noturar bino qurish loyihasi.

Buyurtmachi: BUNYODKOR GAZ INVEST MCHJ

Bosh loyihachi: "SMART - ENGINEERS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi: "Bunyodkor Gaz Invest" MCHJ.

Qurilish turi: Yangi qurilish

Murojaat raqami: 131918

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Ob'ektni ixtisosini o'zgartirish va rekonstruksiya qilishga uchun 2026- yil 2- apreldagi 273481065 - sonli ruxsatnoma.

1.2. "Bunyodkor Gaz Invest" MCHJ direktori tasdiqlagan va kelishilgan loyiha topshiriqnomasi.

1.3. Qashqadaryo viloyat Arxitektura qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2026- yil 13- aprelda berilgan 1710-1710401-262281- sonli (Arxitektura - rejalashtirish topshirig'i).

1.4. Loyiha Qashqadaryo viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining bilan kelishilgan. 2026- yil 2- iyundagi 294099929 -sonli xulosasi.

1.5. Davlat ekologik ekspertizasining 2026- yil 17- apreldagi 01-02/05-5425- sonli xulosasi.

1.6. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2026- yilda tuzilgan 4- sonli shartnoma.

1.7. Texnik shartlar:

"Qashqadaryo hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan 2026- yil 22- mayda elektr ta'minoti uchun berilgan 10401231932 - sonli texnik shart.

"Qashqadaryo suv ta'minoti" MChJ tomonidan 2026- yil 16- aprelda suv ta'minoti uchun berilgan 01/1-134-sonli texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha-smeta hujjatlari tarkibi quyidagilardan iborat:

Umumiy tushintirish xati - Kitob.

ART - kitob.

“12 qavatli, 322 xonadonli 1, 2 va 3 xonali uy-joy” loyihasi (AC,KJ,OV,VK,EO,SS,GS bo‘limlari) - 1,2,3 -albom.

Bosh reja, MAF loyihasi – Albom.

“O‘zgashLITI” DUK Qashqadaryo filiali tomonidan berilgan muhandislik -geologik sharoitlar bo‘yicha texnik xulosa – Kitob

Ob‘ektning joriy narxlarda hisoblangan qiymati, mahalliy resurslar varaqasi, materiallar sarfi – kitob.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Qurilishning iqlim hududi zonasi – IY, tashqi havoning harorati +35,7°C, -14°C.

Normativ qor qoplami vazni - 50 kgs/m

Normativ shamolning bosimi - 38 kgs/m

Tuman seysmikligi - 7 ball.

Qurilish joyi: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri.

Fundament asosiga xizmat qiladigan tuproq: IGE-2, to‘q sarg‘ish-jigarrang rangdagi qumoq tuproq va qumloq tuproq. Tuproq elementi qalinligi – 22,1m dan -23,0m. Fizikmexanik ko‘rsatkichlari: $\gamma=1,54\text{t/m}^3$, $\phi=25,9\text{gr.}$, $S=6,1\text{KPa}$. Tuproqda suvning chuqurligi -2,5m dan 3,4m da aniqlandi. Yer osti suvlari GOST 31108-2020 bo‘yicha portlandsement asosidagi betonlarga nisbatan kuchli agressiv, GOST 22266-2013 bo‘yicha sulfatga chidamli sementlarda tayyorlangan normal o‘tkazuvchanlikdagi betonlarga nisbatan esa agressiv emas.

Tuproqning seysmik bo‘yicha toiyfasi – III (uchinchi).

Maydon seysmikligi – 8 ball.

Asosiy loyiha yechimlari

3.1. Arxitektura-rejalashtirish yechimi.

“Ko‘p qavatli turar joy binosi” 12 -qavatli 1- blok (3 dona), to‘g‘ri burchakli formada o‘lchami o‘qlar bo‘yicha -18,0x36,0 metir bo‘lib bir blok ikki-seksiyadan iborat. Birinchi qavatda: noturar xonalar (4 dona) va binoning kirish bloki mavjud. Barcha qavatlarining blok-seksiyalarida 1 va 2 xonali xonadonlar joylashgan. Ikkinchi va keyingi qavatlariga ichki zina orqali chiqiladi. Lift taqdim etilgan. Binoda yerto‘la mavjud bo‘lib, unda noturar binolar 2 dona va texnik xonalar joylashgan. Birinchi qavatda har bir guruh xonalari ko'chadan alohida kirishga ega. Asosiy kirish joyi nogironlar uchun pandus va kutarma kiran bilan jihozlangan.

Ichki pardozi: devorlari suvoq qilinib, suvli emulsiya va akril bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi. Pollar – keramik plitka, laminat va marmar. Tashqi pardozi: zamonaviy pardozlash materiallari yordamida amalga oshiriladi.

“Ko‘p qavatli turar joy binosi” 12 -qavatli 2- blok, to‘g‘ri burchakli formada o‘lchami o‘qlar bo‘yicha -18,0x18,0 metir bo‘lib bir blok bir-seksiyadan iborat. Birinchi qavatda: noturar xonalar (2 dona) va binosining kirish bloki mavjud. Barcha qavatlarining blok-seksiyalarida 1 va 2 xonali xonadonlar joylashgan. Ikkinchi va keyingi qavatlariga ichki zina orqali chiqiladi. Lift taqdim etilgan. Binoda yerto‘la mavjud bo‘lib, unda noturar binolar va texnik xonalar joylashgan. Birinchi qavatda har bir guruh xonalari ko'chadan alohida kirishga ega. Asosiy kirish joyi nogironlar uchun pandus va kutarma kiran bilan jihozlangan.

Ichki pardozi: devorlari suvoq qilinib, suvli emulsiya va akril bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi. Vannaxona, hojatxona va oshxona devorlari keramik plitka bilan qoplanadi. Pollar –

keramik plitka, laminat va marmar. Tashqi pardozi: zamonaviy pardoqlash materiallari yordamida amalga oshiriladi.

3.2. Texnologik yechim.

1- blok (3dona) va 2-blok binoda jami 308 ta xonadon joylashgan, shundan 154 tasi 1 xonali, 154 tasi 2 xonali. 1 xonali xonadon kirish yo'lagi, umumiy xona, oshxona, dushxona va san.uzeldan iborat. 2 xonali xonadon kirish yo'lagi, umumiy xona, yotoqxona, oshxona, dushxona va san.uzeldan iborat. Uyning yerto'lasiga ichki va tashqi zinapoyalar orqali kiriladi. Binoda yerto'la mavjud bo'lib, unda noturar binolar 7 dona va texnik xonalar joylashgan. Bino ichimlik suv, elektr ta'minoti hamda o't o'chirish uchun birlamchi jihozlar bilan ta'minlangan.

3.3. Zilzila bardoshlik yechimi.

"12-qavatli turar-joy va 1-qavat savdo va maishiy xizmat. 1- blok va 2- blok" quyma temir beton konstruksiyali sxemada loyihalashtirilgan. Bino o'lchami o'qlar bo'yicha 1- blok - 18,0x 36,0m va 2- blok - 18,0x18,0m. Bino xona balandligi -3,0m. Podval chuqurligi -3,0m. poydevori - quyma temirbeton plita t=1000mm sinf B20.

poydevor devori - quyma temirbeton sinf B25.

kolonna va rigeli - quyma temirbeton sinf B25.

diaframma jostkosi quyma temirbeton sinf B25.

zinopoyasi va lift - quyma temirbetonli sinfi B25

orayopma va tom yopma -quyma temirbetonli plita qalinligi t=200mm sinf B25.

tashqi devori - pishiq g'ishtdan sementli qorishma M-50, tashqi devor qalinligi 250mm va gazoblok qalinligi 200mm metall ugolok bilan mustahkamlangan qalinligi t=200mm, tashqi devor gazoblok metall ugolok bilan mustahkamlangan, qalinligi t=200mm va issiqlik saqlovchi qalinligi 80mm va 80mm PPJ 140 markali bazalt plita.

to'siqlar -qalinligi 100mm bo'lgan gazoblok.

tomi - yumshoq tom qoplamali, Polizol TKP-3, ikki qatlamli Polizol TPP-4, suvdan ximoya qatlami, geotekstil tushama va t=40-150mm yarim quruq sement qum aralashmasi.

tomda issiq-sovuq saqlovchi - bazalt plita qalinligi t=120mm.

pollari - seriyasi 2.244.1 i/ch.6, issiqlik saqlovchi qalinligi 40mm va 10mm.li g'ovakli polietilen va penopolistrol.

vitraj, deraza va eshigi - «PVX» va MDF dan va alyumin profildan, temirdan yasalgan.

otmostkasi - betonli, eni 1,50m.

Loyihada poydevor tagiga qalinligi 2,0m GPS to'shama o'rnatilgan.

3.4. Bosh reja. Loyihalashtirilgan qurilish uchun ajratilgan maydon Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, "Oqtepa" MFY, "Nurxon" ko'chasi, 15-uy hududda joylashgan. Loyihada 12-qavatli, 308 xonadonli yashash uyi qurilishi ko'zda tutilgan. Hududda uy-joydan tashqari quyidagi qo'shimcha bino va inshootlar qurilishi loyihalashtirilgan: bolalar maydonchasi, dam olish ayvoni, chiqindi yig'ish maydoni va yong'in xafvsizlik qalqoni. Vertikal loyihalashtirish yondosh hududlar bilan birga amalga oshiriladi. Irrigatsiya tarmog'i lotoklar bilan bajariladi. Yo'l va yo'laklarning qattiq qoplamalari qalinligi 8 va 10 sm.li beton bilan bajariladi. Ochiq avtoturargoh mavjud. Hududda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

3.5. Nogironligi bo'lgan shaxslarga sharoitlar Imkoniyati cheklanganlar uchun "Nogironligi bo'lgan shaxslarning xuquqlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2024- yil 18- iyuldagi PQ-266-son qarori asosida va ShNQ 2.07.02-24 “Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo’lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ga muvofiq loyihada chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, shundan asosiylari:

Asosiy yo'lakdan kiraverishida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qiya zinapoya ko'targichilari o'rnatish;

Noturar bino qismiga imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ko'tarish qurilmaslarini (lift) o'rnatish;

Noturar qizmidan yer to'laga tushishda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qiya zinapoya ko'targichilari o'rnatish;

Eshiklar romlarini paroksizsiz o'rnatish;

Avtoturargoh va aloxida belgilangan joy;

Nogironligi bo'lgan shaxslarga taktil plitali yo'laklar qilingan.

Asosiy texnik -iqtisodiy ko'rsatkichlar.

“12- qavatli 1- blok”.

Qurilish hajmi - 32163,2 m.

Umumiy maydoni - 5819,72 m.

Qurilish maydoni - 677,12 m.

Quvvati - 308 xonadon.

“12- qavatli 2- blok”.

- 16081,6 m

- 1398,28 m.

- 338,56 m.

Ob’ektning QQS bilan buyurtmachi xarajatlarsiz

joriy narxlardagi smeta qiymati - 106 876 921,503 ming so'm.

Qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari: - 701 828,065 kishi/soat.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Muhandislik uskunalari.

Issiqlik ta'minoti: Bo'lim OV: Isitish tizimi pastdan tarqatiladigan ikki quvurli, issiqlik uzatilishiga qarab polipropilen quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida alyumin radiatorlar qo'llanilgan. Xonadonlarni isitish uchun har bir xonadonda alohida individual isitish qozonlari o'rnatilgan. Shamollatish tizimi har bir xonadondan alohida olib chiqiladi. Shamollatish havo berish va havoni so'rish tabiiy va mexanik yo'l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza va eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik va oqova suv ta'minoti: Bo'lim VK: Ichimlik suvi alohida alohida joydan kiritilib loyihalashtirilgan. Polipropilen quvurlar qo'llanilgan. Issiq suv ta'minoti elektr suv isitish va quyoshli suv isitish qurilmalari bilan amalga oshirilgan. Quyoshli suv qizdiruvchi qurilmalar binoning tom qismida o'rnatilgan. Polipropilen quvur qo'llanilgan. Ichki oqova suv tarmog'i o'z oqimi bilan oquvchi, PIBX plastmassa quvur bilan loyihalashtirilgan.

IET bo'limi: Loyihalaniyotgan ko'p qavatli turar-joy binosi (1-bloki)ning ichki elektr ta'minoti: Tarmoq kuchlanishi 380/220V. Hisoblangan umumiy quvvati 520.0 kVt. Xonadonlarning yoritish va maishiy jixozlarning elektr ta'minoti taqsimlash qurilmasi (SHK)dan amalga oshirilgan. Taqsimlash qurilmasi (SHK)ning elektr ta'minoti VVG kabellari orqali qavatlarda o'rnatilgan elektr taqsimlash qurilmasi (SHE)dan amalga oshirilgan. Binoning ichki yoritish chiroqlari zamonaviy turdagi LED yoritish chiroqlari bilan ta'minlangan. Yoritish va maishiy jixozlarning elektr ta'minoti VVG kabellar bilan devorning suvoq qatlam ostidan amalga oshirilgan. Xonadonlarning elektr energiyasini hisobi qavatlarda o'rnatilgan taqsimlash qurilmasi (SHE)da o'rnatilishi ko'zda tutilgan bir

fazali elektron hisoblagich orqali amalga oshirilgan. SHening elektr ta'minoti VVG kabellari orqali binoda o'rnatilgan ichki taqsimlash qurilmasi (VRU)dan amalga oshirilgan. Xonadonlarning eshik qo'ng'iroqlari (domofon) o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Binoning umumiy foydalanish qismida ishchi yoritish jixozlari QMQ 2.01.05-19 4.27 bandi ko'rsatilgan talablar (harakatni va yorug'likni sezuvchi qurilmali yoritgichlarni qo'llash zarur) asosida bajarilgan. Muqobil elektr manbai sifatida zamonaviy turdagi quvvatga mos quyosh elektr stansiyasi o'rnatilgan. Loyihalaniyotgan ko'p qavatli turar-joy binosi (2-bloki)ning ichki elektr ta'minoti: Tarmoq kuchlanishi 380/220V. Hisoblangan umumiy quvvati 260.0 kVt. Xonadonlarning yoritish va maishiy jixozlarning elektr ta'minoti taqsimlash qurilmasi (SHK)dan amalga oshirilgan. Taqsimlash qurilmasi (SHK)ning elektr ta'minoti VVG kabellari orqali qavatlarda o'rnatilgan elektr taqsimlash qurilmasi (SHE)dan amalga oshirilgan. Binoning ichki yoritish chiroqlari zamonaviy turdagi LED yoritish chiroqlari bilan ta'minlangan. Yoritish va maishiy jixozlarning elektr ta'minoti VVG kabellar bilan devorning suvoq qatlam ostidan amalga oshirilgan. Xonadonlarning elektr energiyasini hisobi qavatlarda o'rnatilgan taqsimlash qurilmasi (SHE)da o'rnatilishi ko'zda tutilgan bir fazali elektron hisoblagich orqali amalga oshirilgan. SHening elektr ta'minoti VVG kabellari orqali binoda o'rnatilgan ichki taqsimlash qurilmasi (VRU)dan amalga oshirilgan. Xonadonlarning eshik qo'ng'iroqlari (domofon) o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Binoning umumiy foydalanish qismida ishchi yoritish jixozlari QMQ 2.01.05-19 4.27 bandi ko'rsatilgan talablar (harakatni va yorug'likni sezuvchi qurilmali yoritgichlarni qo'llash zarur) asosida bajarilgan. Muqobil elektr manbai sifatida zamonaviy turdagi quvvatga mos quyosh elektr stansiyasi o'rnatilgan.

YS bo'limi: Loyihalaniyotgan ko'p qavatli turar-joy binolarining xonadonlar, kirish qismi yong'indan avtomatik xabarlash moslamasi o'rnatilgan. Qurilmalarini elektr ta'minoti o'zgaruvchan tok tarmog'idan amalga oshiriladi va favqulodda rejimda qurilmaga o'rnatilgan akkumulyator batareyalariga avtomatik o'tadi. Asboblar to'plamida Signal tizimi uzluksiz quvvat manbai blokini o'z ichiga oladi, bu qurilmani 12 V akkumulyatordan 8 soatdavomida ishlashi ta'minlangan. Yong'in signalizatsiyasi tarmoqlari KPSng(A)-FRLS 1x2x0,5 mm² tipdagi simlar yordamida, bino konstruksiyalarida ochiq, poldan 2,5 m dan past bo'lmagan balandlikda amalga oshirilgan. Binoni yong'in xavfini aniqlovchi issiqlik hamda tutun ditektoirlari IP 212-64-R3, IP 101-29-PR -R3 va qo'lda xabarlash IPR 513-11-AR3 tanlab olingan. SHNK2.04.09-2007 ma'lumotlariga ko'ra, ovozli ogohlantirish berilgan. Buning uchun SUZ ovozli signallarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

VK bo'limi: Loyihalaniyotgan ko'p qavatli turar-joy binosining tashqi va ichki videokuzatuv moslamasi binoda o'rnatilgan telekommunikatsion shkaf orqali amalga oshirilgan. Videokuzatuvni yozib borish kommutatorlar orqali IP turdagi ichki va tashqi kuzatuv kameralari o'zaro videokuzatuv aloqasi UTP kabellari orqali aloqa almashinuvi ta'minlangan. Uskunalar to'plamida signal tizimi uzluksiz quvvat manbai blokini o'z ichiga oladi, bu qurilmani 12 V akkumulyatordan 8 soat davomida ishlashi ta'minlangan.

Yong'in xavfsizligi bo'limi: Loyiha bilan (1, 2-blok) 12 qavatli ko'p kvartirali turar joy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Yerto'la qavatidan bevosita tashqariga chiquvchi evakuatsiya yo'llari va chuqurchalar bilan ta'minlangan (0,75 x 1,5 m) derazalari mavjud. Lift qurilmalari 1-qavatdan pastga tushmaydigan qilib loyihalangan. Tom qismi - yassi (chiqish ichki umumiy zinapoyalar orqali). Isitish - elektr isitish qozonlari orqali.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko'ra, binolarning olovbardoshlik darajasi - II, konstruktiv yong'in xavfi sinfi - S0, funksional yong'in xavflilik sinfi - F1.3. Turar joy binolarining balandligi +37,8 m (yer sathidan eng yuqori yashash qavatida ochiq lodjiyasi to'suvchi panjarasi tepa qismigacha). Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida quyidagi tadbirlar ko'zda tutilgan: Yong'in o'chirish maqsadlari uchun hududda 200 kub.m. hajmli suv hovuzi, 2 ta yong'in o'chirish gidrantlari, binolar tashqi devorlarining izolyatsiyasi va pardozi qismlariga yonmaydigan materiallardan ishlov berish, har bir kvartiralaridan ochiq turdagi balkonlar, balkonlarda avariya lyuklari, ichki yong'in o'chirish suv tizimi, tizimda suv bosimini ko'tarish maqsadida har bir blok yerto'la qavatida nasos qurilmalari, yong'in o'chirish avtonasoslarini ulash maqsadida nasos xonasidan diametri 80 mm bo'lgan quruq quvur va birlashtiruvchi tirsaklar, qavatlar yo'laklaridan yong'in vaqtida tutun tortish va zinapoya kataklarining yuqori qismidan alohida kanallar orqali tashqi havo berish tizimlari, kvartiralarining barcha himoya qilinuvchi xonalarida avtomatik yong'in signalizatsiya tizimi, chiqish joylarida odamlarni yong'indan xabardor va evakuatsiya qilishni (ovozli) boshqarish tizimlari, evakuatsiya chiqish joylarida yong'in signalizatsiyasining qo'lda ishlovchi tashvishgohlari, turar joy binolari ikki uzun tomonidan yong'in-qutqaruv avtomobillari yurishi uchun mo'ljallangan yo'lning ichki qismidan bino devorigacha norma talablari asosida masofalar qoldirilishi, turli vazifaviy yong'inga xavflilik sinfiga mansub xonalar bir biridan yong'inga bardoshli to'siqlar bilan ajratilishi, binolarning yer usti qavatlaridan evakuatsiya uchun N1 turdagi zina kataklari, evakuatsiya yo'lidagi (olovbardoshlik darajasi EI 60) eshiklar binodan chiqish yo'nalishi bo'ylab ochilishi, kvartiralarda sodir bo'lgan yong'inni bartaraf etish maqsadida purkagich bilan jihozlangan shlangni ulash uchun 20 mm. diametrli kranlar, kranlar shkaflarida yong'inga qarshi nasos qurilmalari masofadan ishga tushirish tugmalari, har ikki blok yerto'la qavatida joylashgan savdo xonalarida avtomatik yong'in o'chirish tizimi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Loyiha Qashqadaryo viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining bilan kelishilgan. 2026- yil 2- iyundagi 294099929 -sonli xulosasi.

5.2. Loyiha bo'yicha qabul qilingan yechimlarning javobgarligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **106 876 921 503** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **8 408 988 604** so'mga oshirilib,

115 285 910 107 so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **94 721 655 503** so'm

Asbob-uskunalar: **8 212 192 807** so'm

QQS: **12 352 061 797** so'm

6.1. Arxitektura-qurilish yechimi bo'yicha: Muhim e'tirozlar yo'q, loyiha ish jarayonida mavjud normativ hujjatlar asosida to'g'rilandi.

6.2. Zilzila bardoshlik yechimi bo'yicha. Muhim e'tirozlar yo'q, loyiha ish jarayonida mavjud normativ hujjatlar asosida to'g'rilandi.

6.3. Bosh reja bo'yicha. Muhim e'tirozlar yo'q, loyiha mavjud normativ hujjatlar asosida bajarilgan. Loyiha obodonlashtirishning ishchi chizmalari bilan to'ldirilsin.

6.4. Muhandislik qurilmalari bo'yicha.

Bo'lim: IET,YS,AT: Muhim e'tirozlar yo'q, loyiha ish jarayonida mavjud normativ hujjatlar asosida to'g'rilandi.

Bo'lim: OV,VK: Muhim e'tirozlar yo'q, loyiha mavjud normativ hujjatlar asosida bajarilgan.

6.5. Smeta qismi bo'yicha: Mutaxassis tasdiqlangan ishchi loyihaning smeta hujjatlarini ko'rib chiqdi. Xarajatlar darajasi tekshirildi: ish haqi, mashina va mexanizmlarning ishlashi, asosiy qurilish materiallari ShNK 4.02.00-20 normalariga muvofiq.

"Uslubiy tavsiyalar" va ShNK 4.01.16-09 asosida amalga oshirilgan ob'ekt narxi amaldagi narxlarda aniqlash hisob kitobi asosida va ko'rib chiqildi. ShNK 4.01.16-09 Quruvchi ishchilarning o'rtachasoatlik ish haqi ijtimoiy sug'urtani hisobga olgan holda 31236,18 so'mni tashkil etadi, sug'urta 12%, pudratchining boshqa xarajatlari 18 %, tashkil etadi.

Qurilish materiallari va konstruksiyalarining narxlari "O'zbekiston Respublikasining qurilish sanoatida foydalanadigan moddiy-texnika resurslari bo'yicha mintaqadagi o'rtacha me'yorlarni hisobga olgan holda tekshirildi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugagandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, "Oqtepa" MFY, "Nurxon" ko'chasi, 15-uy hududida qurilishi rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turar joy (12 qavatli) va birinchi qavatli noturar bino qurish loyihasi ob'ektining loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqilib, quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan kelishishga tavsiya etiladi.

"12- qavatli 1- blok".

Qurilish hajmi - 32163,2 m.
Umumiy maydoni - 5819,72 m.
Qurilish maydoni - 677,12 m.
Quvvati - 308 xonadon.

"12- qavatli 2- blok".

- 16081,6 m
- 1398,28 m.
- 338,56 m.

Ob'ektning QQS bilan buyurtmachi xarajatlarsiz

joriy narxlardagi smeta qiymati - 115 285 910,107 ming so'm.

Qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari: - 719726,725 kishi/soat.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 1- ilovasi, 3-bob, 29-bandiga asosan, "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

7.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 11- iyundagi 261-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ob'ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom" va Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 26-apreldagi 243-sonli qaroriga ko'ra, ob'ektning tavsiya qilinayotgan boshlang'ich qiymati tanlov savdolarini o'tkazish uchun mo'ljallangan va shartnoma tuzish uchun asos bo'lmaydi.

7.4. Loyiha Qashqadaryo viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasidan ro'yxatdan o'tkazilsin.

Ishtirokchi ekspertlar: Hasanov To'lg'in Najmiddinovich, Namanov Obid Abdirashidovich, Abduraximov Jasur Kozim O'g'li, Xolmurodov Jasur Faxriddinovich, To'qсанov Sherzod Abdusalomovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Qurbonov Hasan Ismoilovich

Bosh ekspert



**ABDURAXIMOV JASUR KOZIM
O'G'LI**